



Nilufar ADIZOVA,

Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD

E-mail: [n.i.adizova@buxdu.uz](mailto:n.i.adizova@buxdu.uz)

O‘zMU dotsenti, f.f.n A.Iskandarova taqrizi asosida

## CONCEPTUAL CLASSIFICATORY CHARACTERISTICS OF NATIONAL-CULTURAL UNITS RELATED TO TOURISM

Annotation

National and cultural units associated with the tourism sector, which occupies an important place in contemporary life, should be considered not only as lexical structures but also as concepts, as this approach makes it possible to reveal their essential content more accurately and profoundly. This article outlines the methodological foundations for applying the field principle in the analysis of national and cultural lexical units of the tourism sphere based on their common semantic meaning; it substantiates researchers' viewpoints on the key aspects of the issue and analyzes the conceptual, scholarly, and classificatory features of examples related to the research topic.

**Key words:** Tourism-related units, concept, lexical meaning, national and cultural unit, semantic meaning, semantic field, lexical-semantic group, core component, peripheral component.

## КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ КЛАССИФИКАЦИОННЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ ЕДИНИЦ, ОТНОСЯЩИХСЯ К ТУРИЗМУ

Аннотация

Национально-культурные единицы, связанные с туристической сферой, занимающей важное место в современной жизни, целесообразно рассматривать не только как лексические структуры, но и как концепты, что позволяет более точно и глубоко раскрыть их сущностное содержание. В данной статье освещаются методологические основы применения полевого принципа при анализе национально-культурных лексических единиц туристической сферы на основе их общего семантического значения; аргументируются взгляды исследователей по ключевым аспектам данной проблемы, а также анализируются концептуальные, научные и классификационные особенности примеров, относящихся к теме исследования.

**Ключевые слова:** Туристические единицы, концепт, лексическое значение, национально-культурная единица, семантическое значение, семантическое поле, лексико-семантическая группа, ядерная часть, периферийная часть.

## TURIZMGA OID MILLIY-MADANIY BIRLIKLARNING KONSEPTUAL TASNIFIY XOSLANISHI

Annotatsiya

Bugun hayotimizda muhim o‘rin tutuvchi turizm sohasi bilan bog‘liq milliy-madaniy birliklarga leksik tuzilma sifatida qarashdan ko‘ra ularni konsept deb baholash mohiyatning aniq ifodalanishiga imkon beradi. Ushbu maqolada turizmga oid milliy-madaniy leksik birliklarni umumiy semantik ma‘noga ko‘ra tahlil qilishda maydon prinsipidan foydalanishning metodologik asoslari yoritilib, muhim jihatlari to‘g‘risida tadqiqotchilar fikrlari dalillanadi hamda mavzuga doir misollarning konseptual, ilmiy, tasnifiy xususiyatlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Turizmga oid birliklar, konsept, leksik ma‘no, milliy-madaniy birlik, semantik ma‘no, semantik maydon, leksik-semantik guruhi, yadroviy qism, periferiya qism.

**Kirish.** XXI asr – taraqqiyot davrida insoniyat faoliyatining eng tez rivojlanib borayotgan sohalaridan biri bo‘lgan turizmga oid muhim jihatlarning til vositalari orqali ta‘riflanishi va tasvirlanishi beqiyos ahamiyat kasb etadi. Buni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Buxoro shahri “Ark” qo‘rg‘oni majmuasida viloyatning turizm salohiyatini yanada oshirish dasturi taqdimoti”[1] da aytgan fikrlari ham tasdiqlab turibdi: “Buxoroning ko‘hna va boqiy shahar, deb atalishida katta ma‘no bor. Bu yerdagi qadimiy obidalar, osori atiqalar, xalqimizning betakror qadriyatlar, beqiyos an‘analari asrlar osha yashab kelmoqda. Chet elliklarning, tarixshunos va mutaxassislarning ularga qiziqishi doimo yuqori bo‘lgan. Bundan unumli foydalanish kerak...” Shunga ko‘ra, turizm doirasida faol qo‘llanuvchi milliy-madaniy birliklarning konseptual xususiyatlarini ochib berish bugungi kunda har doimgidan ham muhim ahamiyatga egadir.

Har qanday leksik birlik nom(shakl) hamda ma‘no birikuvidan tashkil topadi. Nom leksik birlikning tovush va grafik belgidan iborat tashqi tomonini ifodalasa, leksik ma‘no

muayyan voqelikning lisoniy in‘ikosidir. Shunga ko‘ra, leksik birlikning nomlanishi onomastika hamda ma‘no anglatishi semantika doirasida o‘rganiladi va ushbu birliklarni tadqiq qilish jarayonida ushbu sathlarni bir-biridan ayro tasavvur qilib bo‘lmaydi. Muayyan leksik ma‘no shu til sohibi bo‘lgan xalq tomonidan ma‘lum bir nom shaklida aks ettiriladi. Nom (shakl) va ma‘no o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik (shartli) mavjud bo‘lib, ular bevosita bir-birini taqozo etadi. Zero, shaklsiz ma‘no, ma‘nosiz shakl mavjud bo‘lolmaydi. Leksik ma‘no denotativ ma‘no (asosiy, lug‘aviy ma‘no), tushuncha hamda nom (shakl) ning o‘zaro dialektik yaxlitligi asosida yuzaga keladi. Tushuncha inson ongida mavjud bo‘lgan, so‘z yoki so‘z birikmasi orqali ifodalanadigan keng, ko‘p qirrali ifoda, konsept esa milliy-madaniy o‘ziga xosliklar bilan bog‘liq bo‘lgan ancha keng ma‘noli birlikdir. Tushunchaning asosini voqelikdagi narsa-hodisalar tashkil etib, ularga xos belgi-xususiyatlar inson ongida umumlashma tarzida aks etadi va u barchaga tushunarli, aniq, ixcham shakldagi nom (shakl) orqali kodlanadi. Masalan, “kitob” so‘zining denotativ

ma'nosi yozma ma'lumotlar jamlanmasi, bosma yoki elektron shakldagi asar, tushuncha sifatida esa obyektning umumiy, mantiqiy va aniq belgilarini ifodalovchi abstrakt birlik – muayyan hajmga, o'ziga xos xususiyat (ilmiy, publitsistik, badiiy) ga ega bo'lgan, axborot uzatishga xizmat qiluvchi, matndan iborat obyektning anglatuvchi so'z, qo'shma so'z, so'z birikmasi shaklidagi ifoda, konsept sifatida esa “kitob” faqat axborot manbasi emas, balki bilim, ma'naviyat, donishmandlik, tarbiya timsoliga ega bo'lgan tushunchadan kengroq, milliy-madaniy, tarixiy, emotsional, baholovchi va assotsiativ qatlamlarni ham o'z ichiga olgan ifoda birligidir. Shunga ko'ra, leksik ma'no konseptning faqatgina tushunchaviy xususiyatini yoritishga imkon beradi. Zotan, konsept tushunchaning o'zi bilangina chegaralanmay, muayyan leksik birlikning ham denotativ, ham konnotativ, ham mental xususiyatlari jamlangan butun mohiyatni aks ettiradi. Shu sabab uning mohiyati faqat birgina leksema orqali emas, ko'plab so'zlarning ma'nosiga bog'liq holda muayyan voqelik, tajriba asosida yuzaga chiqadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bugun hayotimizda muhim o'rin tutuvchi turizm sohasi bilan bog'liq milliy-madaniy birliklarga leksik tuzilma sifatida qarashdan ko'ra ularni konsept deb baholash mohiyatning aniq ifodalanishiga imkon beradi. Bu borada Y.V.Moshnyaganing fikri ham ahamiyatli: “turizm ma'no jihatdan boy va maxsus tashkil etilgan ijtimoiy-madaniy tushuncha bo'lib, u madaniyatlararo kommunikatsiya makoni sifatida konseptlar orqali aks etgan metamatn xususiyatiga ega. Ushbu metamatnlr kishilar dunyoqarashini rivojlantirishga, muayyan xalqning o'ziga xos ma'naviy qarashlari, hayot tarzi, moddiy va madaniy xususiyatlari bilan boyitishga yordam beradi.” Shunga ko'ra, muallif konseptni “inson ongida ma'no va obraz birligida mavjud bo'lgan madaniyatning asosiy bir parchasi”, deb hisoblaydi va uni faqat fikr emas, balki hissiyot, tasavvur va sezgi shaklida ham mavjud bo'lgan tushuncha sifatida “turistik dunyoqarash”, “qadriyatlariga asoslangan turistik dunyoqarash”, “turistik tarmoqli madaniyat”, “turistik madaniyat” deb ham ataydi[7]. Shu nuqtayi nazardan, turizmni “yakka konsept emas, balki belgilar, kodlar, ramzlardan iborat makon konseptlarining yaxlit, tartiblangan majmuyi” deb baholash mumkin.

“Konsept” atamasi lotincha “conceptum” “o'ylab topilgan narsa” degan ma'noni bildirib, u haqidagi ilk tushunchalar 1554-1560-yillarga borib taqaladi[4]. U individual ongda shakllanadigan, ammo madaniyat bilan uzviy bog'liq bo'lgan dinamik va murakkab birliklar tizimi bo'lib, bugungi kunda falsafa, psixologiya, mantiq, madaniyatshunoslik, lingvokognitiv (psixolingvistik) tilshunoslik va lingvokulturologiya sohalarining asosiy birligi sifatida tadqiq etib kelinadi. Biroq, lingvistik yondashuvning asosiy o'ziga xos jihati konseptning til birliklari orqali aks etishiga e'tibor qaratilishidir.

I.S.Merzlyakovaning fikricha, konsept atamasi ilk bor o'rta asrlarda Petr Abelyar va Ioann Solsberriyskiy tomonidan qo'llangan bo'lib, u zamonaviy madaniyatdagi jarayon va tushunchalarni anglashda muhim ahamiyat kasb etadi[6]. Rus ilm-fanida ushbu termin ilk bor S.A.Askoldov-Alekseyev tomonidan 1928-yilda qo'llangan va u konseptni “fikrlash jarayonida xuddi bir xil turdagi cheksiz ko'p predmetlar, harakatlar, fikriy funksiyalar o'rmini bosuvchi aqliy shakllanishdir”, deya ta'riflagan [8].

Kuzatishlar asosida, konseptga ikki tomonlama yondashuvlar ko'zga tashlanadi. Unga ko'ra, bir tomondan, tilshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan til birliklariga xos ma'no sifatida qaralsa, ikkinchi tomondan, kognitiv yondashuv doirasida mental olamda mavjud bo'lgan semantik mazmun sifatida talqin qilinadi. Jumladan, bu borada

M.V. Pimenova tomonidan berilgan quyidagi ta'rif ham muhim ahamiyatga ega: “Konsept – bu til ifodalari bog'liq konseptual tizim birligi bo'lib, unda dunyo haqidagi ma'lumot mujassam. Bu ma'lumot dunyoning real yoki taxminiy holatiga taalluqlidir. YA'ni, konsept – bu dunyoning muayyan parchasiga oid tasavvur bo'lib, u obraz, g'oya, ramz kabi umumxalq belgilariga asoslangan shaxsiy tajriba va individual tasavvur elementlari bilan boyitiladi”[6].

Ma'lum bir konsept muloqot jarayonida muayyan leksik birlik semantikasi orqali o'z ifodasini topadi. Biroq konseptning mazmun va mohiyatini to'la ochib berishda denotativ(nomlash) ma'no ham, konnotativ (emotsional-ekspressiv) ma'no ham muhim o'rin tutadi. Bundan ko'rinib turibdiki, konsept faqat so'z emas, balki so'z birikmalari, frazeologik birliklar, gap va mimikalar orqali ham ifodalanishi mumkin. Tilda shakllangan va til egalarining xotirasida saqlanadigan konseptlar birlashib, tilning konseptosferasini tashkil qiladi.

L.M.Goncharovanning fikricha, “turizm” tushunchasi muayyan til sohiblari ongida mavjud bo'lgan “sayohat” lingvomadaniy konsepti bilan uzviy bog'liq holda predmetlarga emas, balki muayyan voqealarga oid murakkab mental xususiyatli konseptdir. YA'ni, konsept – bu har qanday madaniyat uchun muhim va qadrlil bo'lgan, u yoki bu obyekt haqidagi bilimlarni o'z ichiga olgan va tilda uni nomlovchi va tasvirlovchi leksik birliklar to'plamiga asoslangan milliy xususiyatga ega bo'lgan mental ta'limotdir. U muayyan bir millatning madaniy xotirasiga asoslangan bo'lib, keng semantik maydonga ega bo'lgan ijod mahsullari(fenomeni) dir[3].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Semantik soha ma'lum bir predmetga aloqador bo'lgan semantik guruhlangan so'zlarning leksik to'plami bo'lib, bir-biriga bog'liq so'zlar asosida ifodalangan segmentni ifodalaydi[10]. Bunday so'zlar umumiy semantik xususiyatga ega bo'lsa-da, ular sinonim bo'lishi shart emas, chunki o'zining ma'nosi qisman uning shu konseptual sohadagi boshqa so'z ma'nolari bilan bog'liq ravishda hosil bo'ladi.

Tilshunoslar konseptni maydonli tuzilma sifatida tavsiflab, uning tarkibida yadroviy (asosiy birlik) va periferiya (asosiy bo'lmagan, qo'shimcha, ikkinchi darajali birlik) qismlarni ajratadilar. Konsept yadro qismini uni nomlaydigan asosiy leksik birlik tashkil qiladi. Periferik qismga esa uning asosini tashkil etmaydigan, biroq yadro zonasiga bog'liq hodisalarni bildiruvchi leksik birliklar kiradi. Masalan, vikipediya “tourism – asosan dam olish va hordiq chiqarish maqsadida sayohat qilish faoliyati bo'lib, shuningdek, ushbu faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi xizmatlar majmuasini ham anglatadi”, deb ta'rif berilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, “turizm” konseptning asosiy yadro qismini, “dam olish”, “sayohat”, “sayr”, “bo'sh vaqt”, “service – xizmat” kabi leksik birliklar uning tarkibiy qismlari – periferiya qismini ifodalovchi tushunchalardir[11].

Ko'pgina tadqiqotchilar leksik birliklarni umumiy semantik ma'noga ko'ra tahlil qilishda maydon prinsipidan foydalanishadi. “Semantik maydon” tushunchasi 1924-yilda G. Ipsen tomonidan tilshunoslikka kiritilgan bo'lib, u “maydon”ni “umumiy ma'noga ega bo'lgan so'zlar to'plami” deb ta'riflagan. 1932-yilda Y.Trir “so'zlar odam ongida yashirinib, faqat sistema ichida aniq ma'no kasb etadi” degan qarashni ilgari suradi. Unga ko'ra, “maydon – bu muayyan so'zlar bilan butun lug'at tarkibi o'rtasida yuzaga keladigan lingvistik munosabatlar majmuyi bo'lib, ular umumiy birliklar tarkibiga kiradi va, o'z navbatida, kichik birliklarga ajraladigan leksikaning bir qismini tashkil qiladi”[2]. U maydonni ikki turga ajratadi (1-chizmaga qarang):

## 1. Tushunchaviy(konseptual) maydonlar

• haqiqatni bevosita aks ettirish;

## 2. So'z(leksik) maydonlari

• tushunchaviy maydonning til birliklari orqali ifodalanishi.

1-chizma. Semantik maydon turlari

**Tahlil va natijalar.** V.N. Yartseva qarashicha, “maydon” tushunchasi “umumiy mazmunga ega bo‘lgan, o‘zida tushunchaviy, predmetga oid yoki funksional o‘xshashlikni aks ettiruvchi til birliklari to‘plami”dir [2,13]. Shunga ko‘ra, “Semantik maydon” atamasi – bu mazmunij jihatdan bog‘liq bo‘lgan, bir-biriga yaqin ma‘nodagi yoki biror umumiy jihati bilan birlashgan lingvistik birliklar to‘plami sifatida so‘zlarni ma‘nolari asosida guruhlashga yordam beradi va ularning o‘zaro paradigmatic munosabatlarini ko‘rsatadi hamda maydon tizimidagi birliklarni bir-biridan ajratishda yordam beruvchi maxsus (differensial) xususiyatlarni ham namoyon etadi. Misol uchun, “milliy kiyimlar” semantik maydoni umumiy tarzda “muayyan millatga xos barcha kiyimlar” xususiyati asosida birlashadi, biroq ular “tikilish usuli”, “kiyish muhiti”, “kiyim kiyadigan shaxs”, “kiyim xos bo‘lgan davr” kabi xususiyatlar bo‘yicha farqlanadi.

Korpusga kiritilgan matnlarni tahlil qilish jarayonida, asosan, sayyohlar uchun mo‘ljallangan mamlakat madaniy merosining o‘ziga xos milliy jihatlarini ifodalovchi, mavjud matnlarda dominant birlik sifatida qo‘llanuvchi so‘z-realiyalar semantik guruhlariga ajratilib, tahlilga tortildi (1-jadvalga qarang):

1-jadval

Turizmga oid matnlarda aks etgan milliy-madaniy birliklarning leksik-semantik guruh (LSG) asosida tasniflanishi

№	Leksik-semantik guruh (LSG)	Yadroviy qism(asosiy nomlovchi)	Periferiya qismi (qo‘shimcha)
1	“Kiyim-kechaklar” LSG	erkaklar kiyimi	to‘n, chopon, yaktak...
2	“Inshootlar” LSG	arxitektura yodgorliklari	madrasa, masjid, minora, qal‘a...
3	“Muqaddas qadamjolar” LSG	ziyoratgoh	Shohi Zinda, Chor bakr majmuasi...
4	“Milliy hunarmandchilik buyumlari” LSG	kulolchilik buyumlari	ko‘za, xum, tosh kosa...
5	“Tarixiy shaxslar” (LSG)	Buxoro amirlari	Amir Haydar, amir Nasrulloxon, amir Sayyid Olimxon...
6	“Tarixiy voqelik asosida shakllangan” LSG	Somoniylar maqbarasi	Ismoil Somoniy, “Kampir devor”, “Pochocho Ismoil Somoniy”...
7	“Milliy taomlar” LSG	milliy taomlar	osh (palov), shirguruch, manti, ko‘ksomsa...
8	“Milliy urf-odat, marosim, bayram, an‘ana va qadriyatlar” LSG	marosimlar:	kelin salom, beshik to‘yi, Navro‘z marosimlari, sumalak sayli...

“Kiyim-kechaklar” leksik-semantik guruhi (LSG) – turli kiyim turlari, materiallar, aksessuarlar va kiyinish jarayoni bilan bog‘liq leksik birliklar.

“Inshootlar” leksik-semantik guruhi (LSG) – odamlar tomonidan qurilgan, ma‘lum funksiyani bajaruvchi, moddiy obyektlar va binolarni ifodalovchi so‘zlar.

“Muqaddas qadamjolar” leksik-semantik guruhi (LSG) – ziyorat, diniy shaxslar, maqbaralar, muqaddas tabiiy obyektlar, ibodat amallari, tabarruk tushunchalar, e‘tiqod va ruhiy tajribaga doir so‘zlardan iborat murakkab semantik tizim.

“Milliy hunarmandchilik buyumlari” leksik-semantik guruhi (LSG) – xalqimizning madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan an‘anaviy hunarmandchilik san‘ati natijasi sifatida yaratilgan, madaniy merosni ifodalovchi va kundalik hayotda yoki bezak sifatida ishlatiladigan milliylikni aks ettiruvchi moddiy buyumlar nomlari.

“Tarixiy shaxslar” leksik-semantik guruhi (LSG) – millatimiz o‘tmishi bilan bog‘liq tarixiy voqealarda, madaniy yoki siyosiy jarayonlarda muhim rol o‘ynagan, madaniyat va tarixda iz qoldirgan shaxslarni ifodalovchi so‘zlar majmuyi.

“Tarixiy voqelik asosida shakllangan” leksik-semantik guruh (LSG) – muayyan tarixiy davr, ijtimoiy-siyosiy tuzum, madaniy jarayon yoki real tarixiy hodisalar natijasida paydo bo‘lgan va shakllangan leksik birliklar majmuyi.

“Milliy taomlar” leksik-semantik guruhi (LSG) – muayyan xalqning tarixiy taraqqiyoti, madaniyati, urf-odatlari, geografik sharoiti va turmush tarziga bog‘liq holda shakllangan taom nomlari.

“Milliy urf-odat, marosim, bayram, an‘ana va qadriyatlar” leksik-semantik guruhi (LSG) – xalqning kundalik hayoti, rasm-rusumlari, bayramlari, ma‘naviy qadriyatlari va tarixiy an‘analarini nomlovchi so‘zlardan iborat millat madaniy-ma‘naviy merosini aks ettiruvchi leksik birliklar.

**Xulosa va takliflar.** Umuman olganda, semantik maydonni tuzishda asosiy mezon bu – maydon birliklarini birlashtiruvchi umumiy semantik xususiyat bo‘lib, u umumlashtirilgan ma‘noga ega leksema orqali ifodalanadi. Konseptni semantik maydon orqali aks ettirish til va tafakkur o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishga imkon beradi. Semantik ma‘no atamasi leksik ma‘nodan ko‘ra kengroq tushuncha sifatida talqin qilinadi va u so‘z ma‘nolari doirasini hamda til birliklari turini anglatadi. Shunga ko‘ra, leksik-semantik guruh – bu asosiy semantik komponent bilan birlashgan keng ko‘lamli so‘zlar tizimi bo‘lib, u predmetlar, belgilar, jarayonlar, voqeliklar yoki munosabatlar sinfini bildiruvchi umumiy semantik belgi bilan birlashtirilgan birliklarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

### ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.O. “Buxoro shahri “Ark” qo‘rg‘oni majmuasida viloyatning turizm salohiyatini yanada oshirish dasturi taqdimoti” dagi nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/315>

2. Бердинова Шахида Бахрамджановна. Семантическое поле концепта «evil» в историческом романе Хилари Мантел «Wolf Hall». Выпускная квалификационная работа. Санкт-Петербург 2020.
3. Goncharova L.M. Концепт «путешествие» и его межкультурная представленность в рекламной коммуникации сферы туризма. НИР. Современная коммуникативистика (№ 1, 2012). Москва.
4. Homework Help and Textbook Solutions | bartleby. Archived from the original on 2008-07-06. Retrieved 2011-11-25. The American Heritage Dictionary of the English Language: Fourth Edition.
5. Istamovna, A. N. "Sayohat turizmiga oid matnlarda milliy-madaniy birliklarning leksik-pragmatik xususiyatlari." Contemporary technologies of computational linguistics 2.22.04 (2024): 479-484.
6. Мерзлякова И.С. Понятие лингвокультурного концепта и его методологическое значение для изучения национальной культуры.// Гуманитарный вектор 2008 № 2. 36
7. Moshnyaga Елена Викторовна. Концептное пространство межкультурной коммуникации в системе международного туризма. Автореф. дисс. канд. филол. наук - Москва-2011.
8. Попова, З.Д. Когнитивная лингвистика – М.: АСТ: Восток – Запад, 2007. Стр.30.
9. Carson D.A. Exegetical Fallacies, section Expansion of an Expanded Semantic Field
10. Соссюр Ф. Де. Труды по языкознанию. – Москва: Прогресс, 1977. – С.147.
11. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Turizm>